

“YO‘LQURILISH” AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil 3-iyundagi
91/09-3-qr-son qaroriga
4-ILOVA

“YO‘LQURILISH” AJ
IJROIYA ORGANI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI
(yangi tahrir)

2023 yil

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom “Yo‘lqurilish” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) ijroiya organi - boshqaruvining maqomini belgilaydi va uning ishini, a‘zolarini tayinlash tartibini, shuningdek har bir a‘zosining huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyin o‘rinlarda - Qonun)ga, Korporativ boshqaruv kodeksi (31.12.2015y. 9-son) talablariga, Jamiyat ustaviga va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Jamiyatning ijroiya organi - boshqaruvini tuzish va uning vakolatlarini tugatish tartibi

3. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik ijroiya organ – jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyatiga jamiyat Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi.

4. Jamiyat boshqaruvi 3 (uch) nafar a‘zodan iborat bo‘lib, quyidagi lavozimlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Boshqaruv raisi;
- Boshqaruv raisining o‘rinbosarlari;
- Boshqarma boshliqlari;
- Bo‘lim boshliqlari va xodimlar.

5. Jamiyat boshqaruvining son tarkibi boshqaruv apparatini samaradorligini oshirish, jamiyatni boshqarishda bir-birini takrorlovchi bo‘g‘inlarning tugatilishi va u bilan bog‘liq boshqaruv xujjatlarining qisqarishi tamoyilidan kelib chiqib belgilanadi.

6. Jamiyat boshqaruvi Jamiyatning kollegial ijroiya organ asosidagi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning joriy faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, Jamiyatning yagona aksiyadorining qarori va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

7. Jamiyat boshqaruvi raisi Jamiyatning yagona aksiyadorining qarori bilan uch yil muddatga saylanadi. Boshqaruv a‘zolari boshqaruv raisining taqdimnomasiga binoan Jamiyatning yagona aksiyadorining qarori bilan uch yil muddatga saylanadi. Shuningdek, Boshqaruv a‘zolari boshqaruv raisining taqdimnomasiga binoan yagona aksiyadorning qarori bilan lavozimdan ozod etiladi.

8. Jamiyat boshqaruv a‘zolarini saylash, odatda, chet el menedjerlari ham ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.

9. Boshqaruv a‘ziligiga nomzod jamiyatga o‘zi jinoiy javobgarlikka tortilganligi to‘g‘risidagi faktlarni ma‘lum qilishi shart.

10. Jamiyat boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashi raisi yoki vakolat berilgan shaxs imzolaydi. Boshqaruv a‘zolari bilan mehnat shartnomalarini Jamiyat nomidan boshqaruv raisi imzolaydi.

Shartnoma uch yil muddatga, uni uzaytirish yoki tugatish haqida qaror qabul qilish asosida tuziladi.

- Jamiyat Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq jamiyat boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.

11. Jamiyat yagona aksiyadori Jamiyat boshqaruv raisi va Jamiyatning boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda bekor qilishga haqlidir.

12. Jamiyat yagona aksiyadori Jamiyatning Boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma shartlari buzilsa va (yoki) ular tomonidan Jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'yilsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

13. Jamiyat boshqaruvi raisi va a'zolariga oylik ish haqi jamiyat shtatlar jadvaliga asosan to'lab boriladi. Yil yakunlari bo'yicha mukofot to'lovlari yagona aksiyador qarori bilan amalga oshiriladi.

14. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari Jamiyat Boshqaruvi organlarida o'rindoshlik asosida ishlashga haqli emaslar.

3. Jamiyat boshqaruvining vakolat va majburiyatlari

15. Jamiyat boshqaruvi vakolatiga Jamiyatning joriy faoliyatini boshqarish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish kiradi. Jamiyat yagona aksiyadorining yoki Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno.

16. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolarining huquq va majburiyatlari amaldagi qonunchilik, Jamiyat ustavi va ularning har biri bilan tuziladigan shartnomalar bilan belgilanadi.

17. Jamiyat boshqaruvi Jamiyat yagona aksiyadori va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

18. Jamiyat Boshqaruvining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- *Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;*

- *Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes – rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;*

- *Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes – rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;*

- *qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;*

- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;

- o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni aksiyadorga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

- Jamiyat yagona aksiyadorining yig'ilishida va Kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorning barcha huquqlariga rioya qilish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga axborot va ma'lumotlarni taqdim etib borish;

- Jamiyatga va jamiyatning ulishi 50 foizdan ortiq korxonalariga uchunchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritilishini yoki ularning korxonalar ustav kapitalida ishtirok etilishini, jamiyat yagona ishtirokchi bo'lgan korxonalarni qayta tashkil etilishini hamda yirik ko'chmas mulk obyektlarini sotilishini Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan oldindan kelishish;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

19. Jamiyatning boshqaruvi, qonunchilik, jamiyat ustavi va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Jamiyat boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

4. Jamiyat boshqaruvi a'zolarining huquq va majburiyatlari

20. Jamiyat Boshqaruv raisining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- o'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- javobgarligini sug'urtalash;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;

- Jamiyat kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, Jamiyat yagona aksiyadorining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

- Jamiyat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiyat filiallari va vakolatxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgaritirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;
- o'z vakolati doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin)
- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini tashkillashtiradi;
- Jamiyat boshqaruv a'zolarini tayinlash yoki ular bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish yuzasidan yagona aksiyadorga taqdimnoma kiritish;
- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan samarali foydalanish choralari ko'radi;
- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlaydi;
- Shtatlarni belgilaydi, xodimlarning shtat ro'yhatini tasdiqlaydi;
- Jamiyatning filiallari, vakolatxonalari va mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;
- Jamiyat filiallari va vakolatxonalari shtat jadvallari tasdiqlaydi;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;
- Banklarda hisob raqamlar shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochadi va Jamiyatning bank va boshqa moliya xujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'ladi.
- o'zining vakolatlari doirasida, Jamiyat mijozlari, korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolaydi va bitimlar tuzadi;
- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qullaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
- Jamiyat Boshqaruvi raisi, qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. Jamiyat boshqaruvining ish tartibi

21. Jamiyat boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Jamiyat boshqaruvi tomonidan Jamiyat kuzatuv kengashi yoki yagona aksiyadori hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Jamiyat kuzatuv kengashida va yagona aksiyadoriga boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

22. Jamiyat boshqaruvi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda boshqaruv a'zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

23. Jamiyat boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat boshqaruvi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

24. Jamiyat boshqaruvining majlisi boshqaruv raisi tomonidan yoxud ko'rib chiqilayotgan masalaga egallagan lavozimi yuzasidan bevosita aloqador bo'lgan boshqaruv a'zosi tomonidan olib boriladi.

25. Jamiyat boshqaruvi kotibi boshqaruv majlislarining bayonnomasi yuritilishini tashkil etadi. Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar:

- *majburiy tartibda Jamiyat kuzatuv kengashi raisiga va taftish komissiyasiga;*
- *boshqa mansabdor shaxslar va auditorning talabiga ko'ra faqat boshqaruv raisining ruxsati asosida;*
- *amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollarda boshqa shaxslarga va organlarga (shu jumladan davlat organlariga) beriladi.*

6. Jamiyat boshqaruvining javobgarligi

26. Jamiyat boshqaruvi a'zolari o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga va Jamiyat ustaviga muvofiq Jamiyatga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'liq xajmda Jamiyat oldida javob beradilar. Shuningdek, boshqaruv raisining taqdimnomasiga binoan yagona aksiyador tomonidan egallab turgan lavozimidan ozod etiladi.

27. Boshqaruv a'zolari faoliyati Jamiyat xizmatlarini mijozlarga taqdim etishda qiyinchilik tug'diradigan korxonalarni ta'sis etish yoki ta'sis etishda qatnashish huquqiga ega emaslar. Boshqaruv a'zosi lavozimga tayinlanganida bunday korxonalarda o'z ishtirokini to'xtatishi va bu to'g'risida Jamiyat kuzatuv kengashini xabardor qilishi lozim.

28. Jamiyat boshqaruv raisi va a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar va uni o'rnini to'liq qoplash bo'yicha qonun hujjatlari va Jamiyat ustaviga muvofiq javobgardilar.

29. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.